



O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 3 ISS: 2 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



№	MUNDARIJA	Page
1.	QISHLOQ XO'JALIGI SUG'URTASIDA AKTUAR HISOBLARNI QULLASH VA RIVOSHLANTIRISH MASALALARI <i>Nurullaev Abdulaziz Sirojiddinovich</i>	5
2.	SUG'URTA KOMPANIYALARI MOLIYAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA XORIJ TAJRIBASI <i>Nosirov Jasur Tursunpulotovich</i>	9
3.	ESG TAMOYILLARI ASOSIDA SUG'URTA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH <i>Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich, Yusupov Akbar Haydarovich</i>	14
4.	SUG'URTA SOHASIDA INNOVATSION MARKETING VA RAQAMLI REKLAMA STRATEGIYALARINI JORIY ETISH YO'NALISHLARI <i>Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich, Raxmonberganov Surojbek Uktamboy o'g'li</i>	18
5.	MIJOZLAR QAMROVINI OSHIRISH UCHUN SUG'URTA KOMPANIYALARIDA TIZIMLI MARKETING STRATEGIYALARINI AMALGA OSHIRISH <i>Raxmonberganov Surojbek Uktamboy o'g'li</i>	21
6.	O'ZBEKISTON SUG'URTA TASHKILOTLARI FAOLIYATIDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINING HOLATI: MAVJUD MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI <i>Xasanov Farrux Ravshanovich</i>	25
7.	PENSIYA SUG'URTASINI AMALIYOTGA JORIY ETISHNING ZARURIYATI VA DOLZARBLIGI <i>Yo'ldoshoval Aziza Muzaffar qizi</i>	28
8.	BANK XIZMATLARINI SUG'URTALASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI <i>Tog'ayniyazov Shohzodbek Ural o'g'li</i>	30
9.	O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORIDA KOMPANIYALARNING MOLIYAVIY KO'RSATKICHLARI DINAMIKASI <i>Iminova Nurjahon Qodirjon qizi</i>	34
10.	QISHLOQ XO'JALIGIDA SUG'URTA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH <i>Djumayev Jonibek O'rinovich</i>	38
11.	СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПЕРЕСТРАХОВОЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ СТРАХОВОГО СЕКТОРА <i>Муминова Ансора Улдузбек кизи</i>	42
12.	СОВРЕМЕННЫЕ ДРАЙВЕРЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В СТРАХОВЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ <i>Жиянова Наргиза Эсанбоевна, Зохидова Диёра Улдузбек кизи</i>	45
13.	O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGI SUG'URTASI BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI <i>Madiyev Abbas Nosirovich</i>	50
14.	QISHLOQ XO'JALIGI RISKLARINING XUSUSIYATLARI VA ULARNI ILMIY TASNIFLASH METODOLOGIYASI <i>Qo'ldoshev Qamariddin Mansurovich</i>	53
15.	O'ZBEKISTONDA SUG'URTA TASHKILOTLARI TO'LOV QOBILIYATINI TA'MINLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI <i>Xattabov Murodulla Batirovich</i>	56
16.	KORXONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MOLIYAVIY BOSHQARUVNING AHAMIYATI <i>Muratova Saodat Igamnazar qizi</i>	59
17.	TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH MASALALARI <i>E.I.Ergashev, Qarayev Anvar Botirovich</i>	63
18.	O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI <i>Kuldashev Jahongir Qamariddinovich</i>	67
19.	BANK TIZIMI BARQARORLIGI IQTISODIY RIVOJLANISH GAROVIDIR <i>Nazarov Qilich Xolmuradovich, Toyirov Yunus Alamovich</i>	71
20.	MILLIY IQTISODIYOTNI KREDITLASHDA TIJORAT BANKLARINING ROLI <i>Nazarov Qilich Xolmuradovich, Toyirov Yunus Alamovich</i>	73
21.	A SYSTEM OF INDICATORS FOR ENSURING THE ECONOMIC SECURITY OF COMMERCIAL BANKS UNDER INCREASING SYSTEMIC RISK <i>Malikova Dilrabo Muminovna</i>	76

22.	IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHDA HUDUDIY MARKETINGNING FUNKSIONAL O'RNI VA AHAMIYATI <i>Mukhammadieva Nodira</i>	79
23.	XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA INSON RESURSLARIGA QILINGAN XARAJATLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASI <i>Usmanova Nigina Marupovna</i>	84
24.	НАЛОГОВАЯ РЕФОРМА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН КАК ФАКТОР РОСТА СПРОСА НА УСЛУГИ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА СРЕДИ МАЛОГО БИЗНЕСА <i>Холбеков Расул Олимович</i>	88
25.	O'ZBEKISTON TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASI: IQTISODIY TA'SIRLAR, INSON KAPITALI VA REINTEGRATSIYA MUAMMOLARI <i>Ismatova Shoxsanam Abdulaziz qizi</i>	92
26.	O'ZBEKISTONDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHNING KONTSEPTUAL ASOSLARI <i>Berdibayev Fayzulla Zaripbayevich</i>	95
27.	ASOSIY KAPITALGA O'ZLASHTIRILGAN INVESTITSIYALAR UZOQ VAQT BARQAROR FOYDA KELISHI KAFOLATI <i>Jomolov Muzaffar Mirzoxitovich</i>	98
28.	SUG'URTA KAPITALIDAN INVESTITSIYA SIFATIDA FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA BAHOLASH (DEA MODELI ASOSIDA) YO'LLARI <i>Kenjayev Ilhom G'iyozovich</i>	101
29.	RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ORQALI INDIVIDUAL SPORTCHILARNI TAYYORLASH TIZIMI BOSHQARUVI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI TAHLILI <i>Junaydullayev Mels Asliddin o'g'li</i>	105
30.	TOSHKENT SHAHRIDA ANHOR KANALI BO'YLAB OSMA KABINALI JAMOAT TRANSPORT TIZIMINI YARATISH KONSEPSIYASI <i>Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li, Kamolidinov Muhibillo Shokirjon o'g'li</i>	109
31.	SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH QUVVATLARIDAN FOYDALANISHNI ME'YORLASHTIRISHNING USLUBIY JIHLARI <i>Ergashev Abrorbek Raxmatulla o'g'li</i>	112
32.	METROLOGIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-AMALIY JIHLARI <i>Rakhmatillaev Nodirjon Yo'ldashvaevich</i>	114
33.	AN INTEGRATED RISK-BASED MODEL FOR ASSESSING THE EXTERNAL ENVIRONMENT OF SMALL ENTERPRISES IN UZBEKISTAN: IMPLICATIONS FOR THE INSURANCE MARKET <i>Djumabayeva Dilobar Asatillayevna</i>	116
34.	UY-JOY NARXLARINI HISOBLASHDA HEDONIK REGRESSIYA FORMULASIDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI <i>Tog'ayeva Dildora Akramovna</i>	120
35.	СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ КЛАССИЧЕСКИХ И СОВРЕМЕННЫХ ПРИНЦИПОВ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ <i>Ахоров Зариф Орипович</i>	123
36.	RAQAMLI SOLIQ TIZIMLARINI JORIY ETISH VA ULARNING IQTISODIY TA'SIRI <i>Tuychiyev Sherxon Shuxrat o'g'li, Xubbimov Sherzod Jamshidovich</i>	126
37.	SOLIQQA TORTISHNING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRI: EMPIRIK TAHLILLAR ASOSIDA <i>Toshnazarova Lola Shuxratillayevna, Karimov Mardon Akram o'g'li</i>	129
38.	TURIZMDA INNOVATSIYALARNING HAYOTIYLIK SIKLI VA ULARNING BOZORGA CHIQUISH BOSQICHLARI <i>Erkaboyeva Jasmina Safarali qizi</i>	133
39.	RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ JOYLARIDA TURIZM XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH <i>Xalimov Shaxboz Xalimovich</i>	136

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC instituti “Milliy ta‘lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma‘mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida” dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD.).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).



RAQAMLI SOLIQ TIZIMLARINI JORIY ETISH VA ULARNING IQTISODIY TA'SIRI

Tuychiyev Sherxon Shuxrat o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti v.b., iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori
Email: sherkhontuychiev@gmail.com

Xubbimov Sherzod Jamshidovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali Iqtisodiyot mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Maqola soliq tizimini raqamlashtirish va uning iqtisodiy ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan. Unda soliqqa tortishning o'zgaruvchanligi, zamonaviy sharoitda soliqning samaradorlikdagi ahamiyati, soliqni raqamlashtirish natijasida daromadlar taqsimotidagi o'zgarishlar tahlil qilingan. Shuningdek, soliq tizimini raqamlashtirishning iqtisodiy oqibatlarini, yagona soliqning ijtimoiy ta'siri, soliqqa tortishda davlat ishtirokining o'zgarishi hamda soliq tizimining axborot ta'minoti sohasidagi islohotlar o'rganilgan. Bundan tashqari, raqamlashtirish jarayoni natijasida shakllanadigan moliyaviy resurslar, rezervlar va daromadlarning davlat iqtisodiyoti hamda soliq boshqaruviga ta'siri tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: soliq tizimini raqamlashtirish, soliq ma'muriyatchiligi, iqtisodiy ta'sir, samaradorlik, soliq intizomi, biznes muhiti.

Abstract: The article is devoted to the study of digitization of taxation and its economic impact. The article examines the variability of taxation, the importance of taxation in the current efficiency, and the changes in income comparison as a result of the digitization of taxation, the study of the economic consequences of the digitization of taxation, the social impact of a single tax, changes in the state participation in taxation, tax It analyzes the impact of changes in the field of information support of the system, the digitization of taxation and the funds formed as a result of the digitization of taxation reserves and income on the state economy and management of taxation.

Keywords: Digitalization of taxation, tax administration, economic impact, efficiency, compliance, business environment.

Абстрактный: Статья посвящена исследованию цифровизации налоговой системы и её экономического воздействия. В работе рассматриваются изменчивость налогообложения, значение налогов в обеспечении современной экономической эффективности, а также изменения в распределении доходов в результате цифровизации налоговой системы. Анализируются экономические последствия цифровизации налогообложения, социальное влияние единого налога, изменения роли государства в налоговых отношениях, а также трансформация информационного обеспечения налоговой системы. Кроме того, исследуется влияние формируемых в результате цифровизации финансовых ресурсов, резервов и доходов на экономику государства и управление налогообложением.

Ключевые слова: цифровизация налогообложения, налоговое администрирование, экономическое воздействие, эффективность, налоговая дисциплина, деловая среда.

Kirish (Введение/Introduction).

So'nggi o'n yilliklarda soliq tizimlarining raqamlashuvi jahon iqtisodiyotida tub o'zgarishlarga olib kelayotgan muhim jarayon sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu jarayon an'anaviy qog'oz asosidagi hisob-kitob va hisobot yuritish tizimlaridan elektron platformalar, avtomatlashtirilgan axborot tizimlari hamda raqamli xizmatlarga bosqichma-bosqich o'tishni anglatadi. Raqamlashtirish nafaqat texnik yangilanish, balki soliq ma'muriyatchiligidagi sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qiluvchi strategik omil hisoblanadi.

Ayniqsa, raqamli soliq tizimlari davlat organlari va soliq to'lovchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tubdan qayta shakllantirmoqda. Masofaviy xizmatlar, elektron hisobotlar, onlayn nazorat mexanizmlari va avtomatik tahlil vositalari soliq yig'ish jarayonini soddalashtirish, inson omilini qisqartirish va ma'muriy xarajatlarni kamaytirish imkonini bermoqda. Bu esa o'z navbatida soliq intizomini oshirish, yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish hamda byudjet daromadlarining barqaror o'sishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Raqamli transformatsiya sharoitida soliq siyosatining samaradorligi ham yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Katta ma'lumotlar (Big Data), sun'iy intellekt va tahliliy platformalardan foydalanish orqali davlat organlari iqtisodiy jarayonlarni aniqroq baholash, prognozlash va tezkor qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bu esa soliq yukini optimal taqsimlash, adolatli soliq siyosati yuritish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, raqamli soliq tizimlari iqtisodiyotning shaffofligini oshirish, korrupsiyaviy holatlariga kamaytirish va investitsion muhitni yaxshilashga ham xizmat qiladi. Xususan, elektron hisob-fakturalar, onlayn kassa tizimlari va integratsiyalashgan ma'lumotlar bazalari orqali

moliyaviy operatsiyalarning aniqligi va ochiqligi ta'minlanadi. Bu esa ichki va tashqi investorlar uchun ishonchli iqtisodiy muhit shakllanishiga zamin yaratadi.

Umuman olganda, soliq tizimlarining raqamlashuvi iqtisodiy samaradorlikni oshirish, davlat moliyasini mustahkamlash va barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim strategik yo'nalish hisoblanadi. Ushbu maqolada raqamli soliq tizimlarining iqtisodiyotga ko'p qirrali ta'siri – samaradorlikning oshishi, xarajatlarning qisqarishi, soliq intizomining yaxshilanishi hamda umumiy iqtisodiy o'sishga qo'shadigan hissasi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Shu orqali raqamli innovatsiyalarning soliq sohasidagi o'rni va ularning kelgusidagi moliyaviy strategiyalarni shakllantirishdagi ahamiyati ochib beriladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi (Literature review, Анализ литературы)

Soliq tizimlarini raqamlashtirish so'nggi yillarda ilmiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bu jarayon iqtisodiy samaradorlikni oshirish, davlat boshqaruvini takomillashtirish va ijtimoiy munosabatlarni transformatsiya qilishda muhim omil sifatida qaralmoqda. Mazkur adabiyotlar tahlili raqamli soliq tizimlarining iqtisodiyotning turli jihatlariga ko'rsatayotgan ko'p qirrali ta'sirini yoritishga qaratilgan.

Ilmiy manbalarda alohida e'tibor soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini oshirish masalasiga qaratilgan. Jumladan, E.Smit (2018) raqamli platformalar soliq to'lov jarayonlarini soddalashtirishi, ma'muriy xarajatlarni qisqartirishi va inson omili bilan bog'liq xatolarni kamaytirishini ta'kidlaydi [1]. Bu esa umumiy hisobda byudjet daromadlarini shakllantirish jarayonining samaradorligini oshiradi. Shuningdek, C. Jones avtomatlashtirilgan soliq tizimlari deklaratsiyalar

va to'lovlarni qayta ishlash jarayonini tezlashtirib, davlat byudjetiga tushumlarning tezroq shakllanishini ta'minlashini ilmiy asoslab bergan [2].

Raqamlashtirilgan soliq tizimlari soliq intizomi va nazorat mexanizmlarini takomillashtirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. N.Brown va I.Brown fikriga ko'ra, elektron hisobotlar va real vaqt rejimidagi ma'lumotlar tahlili soliq organlariga qonunbuzarliklarni aniqlash, soliqdan bo'yin tovlash holatlarini oldini olish va byudjet tushumlarining barqarorligini ta'minlash imkonini beradi [3]. Shu bilan birga, Zaynalov J. R. va Ahrorov Z raqamli platformalar orqali shaffoflik va hisobdorlik oshishi natijasida soliq to'lovchilar va davlat o'rtasidagi ishonch mustahkamlanishini ta'kidlaydilar [4].

Iqtisodchi olim U.Tulakov Raqamli iqtisodiyotda soliq solishning asosiy muammolari jumladan soliq solish hududini aniqlash, kriptovalyuta va elektron tranzaksiyalar sonining ko'payishi bilan bog'liq xatarlarga ham alohida e'tibor qaratgan [5].

Umuman olganda, raqamli soliq tizimlari iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, davlat moliyasini mustahkamlash va barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Shu bois mazkur sohadagi ilmiy izlanishlarni yanada chuqurlashtirish va amaliyotga tatbiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot maqsadi va usullari (Research objective and methods, Цель и методы исследования)

Mazkur tadqiqot doirasida ilgari surilgan muammoni o'rganishda asosiy usullar sifatida tahliliy baholash, mantiqiy yondashuv va induktiv fikrlash usullari qo'llanilib, ular orqali ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results, Анализ и результаты)

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 15 apreldagi 159-son qaroriga muvofiq, kichik korxonalar uchun umumbelgilangan soliqlar o'rniga soddalashtirilgan tartibda soliq to'lash imkoniyati yaratildi. Mazkur soddalashtirilgan soliq tizimining joriy etilishi mamlakatda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda davlat tomonidan ko'rsatilgan muhim qo'llab-quvvatlash choralaridan biri bo'ldi. Bu esa, o'z navbatida, kichik biznes sub'ektlarining moliyaviy yukini kamaytirish, hisob-kitob jarayonlarini yengillashtirish va ularning bozordagi faolligini oshirishga xizmat qildi.

Soliqlar iqtisodiyotning tarixiy rivojlanish bosqichlarida davlat oldida turgan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiluvchi muhim moliyaviy vosita hisoblanadi. Soliqlarning funksiyalari ana shu vazifalarni bajarishga yo'naltirilgan bo'lib, ularni chuqur o'rganish soliq munosabatlarini samarali tashkil etishda muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan, soliqlarning funksiyalari va vazifalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ilmiy asosda tahlil qilish zarur hisoblanadi.

Jahon amaliyotida soliqlarning bajaradigan vazifalari muayyan umumiylikka ega bo'lib, ular ko'pchilik mamlakatlar soliq qonunchiligida o'xshash yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. Ana shunday an'anaviy vazifalardan biri - davlatni o'z funksiyalarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslar bilan ta'minlashdir. Ushbu vazifa, avvalo, soliqlarning fiskal funksiyasi orqali namoyon bo'ladi. Davlatning iqtisodiyotga aralashuv darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, mazkur funksiyaning ahamiyati shunchalik ortadi. Shu bilan birga, fiskal funktsiya faqat iqtisodiy jarayonlar bilan cheklanib qolmay, davlatning ijtimoiy va noishlab chiqarish sohasidagi xarajatlarining ortishi ham qo'shimcha moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltiradi. [6].

Soliqlarning yana bir muhim vazifasi - mamlakatda qulay investitsiya muhitini shakllantirishga ko'maklashishdir. O'zbekiston sharoitida bu yo'nalishning o'ziga xos xususiyati shundaki, investitsiyalarning asosiy qismi savdo va xizmat ko'rsatish sohasiga yo'naltirilmoqda. Bu esa ushbu tarmoqlarda foyda me'yoringa nisbatan yuqoriligi bilan izohlanadi. Shu sababli, soliq siyosati investitsiyalarni ishlab chiqarish sohasiga jalb qilishga rag'batlantiruvchi samarali mexanizm sifatida xizmat qilishi lozim.

Shuningdek, soliqlar aholining mehnat faolligini rag'batlantirishda ham muhim o'rin tutadi. Soliqlar aholi daromadlarini tartibga solishning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Masalan, yuqori daromadlarga nisbatan soliq stavkalarining ortiqcha oshirilishi mehnat taklifining kamayishiga olib kelishi mumkin. Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, 1970-1980 yillarda ayrim mamlakatlarda, jumladan Shveysiyada progressiv soliq stavkalarining yuqori darajada qo'llanilishi malakali kadrlarning boshqa mamlakatlarga migratsiya qilishini keltirib chiqargan. [7].

Iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida daromadlarni taqsimlashda samaradorlik va adolat tamoyillarini uyg'unlashtirish ham soliqlarning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Soliq stavkalarining barqarorligi va ularning moslashuvchanligi uzoq muddatli iqtisodiy maqsadlarni amalga oshirish uchun asos yaratadi. Xususan, ichki va tashqi investorlar kapital qo'yilmalarni amalga oshirishda o'zlarining soliq majburiyatlarini haqida aniq tasavvurga ega bo'lishlari zarur. Soliq stavkalari tez-tez o'zgarib

turishi investitsion faollikni pasaytiradi va uzoq muddatli sarmoyalar oqimini cheklaydi.

Soliqlar nafaqat byudjet daromadlarini shakllantirishda, balki iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda ham faol vosita sifatida xizmat qiladi. Jumladan, narxlarni liberallashtirish, tashqi savdoni erkinlashtirish va mehnat bozorini isloh qilish jarayonlarida yangi iqtisodiy sub'ektlarni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash zarurati yuzaga keladi. Bunday vazifalarni amalga oshirishda soliq stavkalarini differentsiatsiya qilish samarali mexanizm sifatida xizmat qiladi.

Shu tariqa, soliqlarning vazifalari ularni amalga oshirish muddatiga ko'ra qisqa muddatli, o'rta muddatli va uzoq muddatli guruhlariga ajratiladi. Ushbu vazifalar mazmuni jihatidan farq qilsa-da, ularning barchasi davlat moliyaviy barqarorligini ta'minlash va iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Soliqlar nafaqat davlat byudjeti ehtiyojlarini qondirish, balki o'rta muddatli istiqbolda byudjet daromadlarining barqarorligi va moslashuvchanligini ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi.

Zamonaviy iqtisodiyotda soliq munosabatlarini raqamlashtirish jarayoni soliq elementlarining mazmuni va amaliy ahamiyatini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Xususan, soliq manbai, soliq ob'ekti, soliq bazasi kabi asosiy tushunchalar raqamli platformalar orqali aniqlash, hisoblash va nazorat qilish imkoniyatlari bilan boyitilmoqda. Soliq manbai, ya'ni soliq to'lovchi daromadi raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron hisobotlar, onlayn tranzaksiyalar va integratsiyalashgan axborot tizimlari orqali shaffof va tezkor aniqlanmoqda. Bu esa soliq tushumlarini prognoz qilish va nazorat qilish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. [7].

Soliq ob'ekti va manbaini o'zaro farqlash raqamlashtirilgan soliq tizimlarida yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, yer solig'i misolida yer uchastkasining maydoni va huquqiy maqomi kadastr axborot tizimlari orqali avtomatik tarzda hisobga olinadi. Yerdan foydalanishdan olinadigan daromad esa elektron hisob-kitoblar asosida aniqlanib, soliq manbai sifatida xizmat qiladi. Shu orqali inson omili kamayib, soliq hisob-kitoblarining aniqligi va ishonchligi ta'minlanadi.

Soliq bazasi raqamli muhitda avtomatlashtirilgan algoritmlar asosida shakllantiriladi. Qonunchilikda belgilangan imtiyozlar va chegirmalar elektron ma'lumotlar bazalari orqali avtomatik ravishda inobatga olinadi, bu esa soliq hisob-kitoblarida xatolarni kamaytirishga xizmat qiladi. Ayni paytda, raqamli platformalar orqali soliq bazasining o'zgarishi real vaqt rejimida kuzatilishi mumkin.

Soliq stavkalari ham raqamli boshqaruv tizimlari orqali samarali qo'llaniladi. Davlat organlari raqamli tahlil vositalari yordamida soliq stavkalarining iqtisodiyotga ta'sirini baholash, ustuvor sohalarni rag'batlantirish va investitsiyalarni yo'naltirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa soliq siyosatini yanada maqsadli va samarali yuritishga xizmat qiladi.

Soliq imtiyozlari raqamlashtirish sharoitida aniq manzilli va shaffof shaklda taqdim etiladi. Elektron tizimlar orqali imtiyozlardan foydalanish jarayoni avtomatlashtirilib, korrupsiya xavflari va sub'ektiv qarorlar ehtimoli kamayadi. Bu esa soliq tizimiga bo'lgan ishonchni oshiradi.

Soliq bazasini aniqlash usullari ham raqamli muhitda transformatsiyaga uchrarmoqda. Naqd va hisob-kitob usullari elektron hisob-fakturalar, onlayn to'lov tizimlari va raqamli buxgalteriya dasturlari orqali avtomatik ravishda amalga oshirilmoqda. Bu soliq majburiyatlarini o'z vaqtida va aniq bajarishni ta'minlaydi.

Soliqqa tortish usullari - kadastr, deklaratsiya va manbada ushlab qolish usullari - raqamli platformalar orqali integratsiyalashgan holda ishlanmoqda. Masalan, deklaratsiyalar elektron shaklda topshiriladi, manbada soliq ushlab qolish jarayoni avtomatlashtiriladi, kadastr ma'lumotlari esa yagona axborot bazalarida yuritiladi.

Soliq to'lash muddatlari va tartibi ham raqamlashtirish natijasida soddalashtirildi. Soliq to'lovchilar onlayn to'lov tizimlari orqali soliqlarni masofadan turib, tez va qulay tarzda to'lash imkoniyatiga ega. Shu bilan birga, raqamli tizimlar soliq to'lovlarining o'z vaqtida amalga oshirilishini nazorat qilish va avtomatik eslatmalar yuborish imkoniyatini yaratdi.

Umuman olganda, soliq tizimini raqamlashtirish soliq elementlarining samarali amal qilishini ta'minlab, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish, byudjet tushumlarini barqaror oshirish va iqtisodiyotning shaffofligini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xulosa (Conclusion, Заключение)

Xulosa sifatida ta'kidlash mumkinki, soliq tizimlarini raqamlashtirish jahon iqtisodiyotiga chuqur va ko'p qirrali ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu transformatsiya real vaqt rejimida ma'lumotlarni qayta ishlash imkoniyatini yaratib, soliq ma'muriyatchiligining samaradorligi va aniqligini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga,

ma'muriy xarajatlarni qisqartirish, inson omili bilan bog'liq xatolarni kamaytirish hamda soliq tushumlarini barqarorlashtirishga xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalar asosida shakllangan zamonaviy soliq tizimlari nazorat mexanizmlarini kuchaytirish orqali soliq intizomini oshiradi, soliqdan bo'yin tovlash holatlarini kamaytiradi va adolatli soliq muhitini ta'minlaydi. Bu esa davlat byudjeti daromadlarining barqaror o'sishiga va moliyaviy barqarorlikning mustahkamlanishiga zamin yaratadi.

Tadbirkorlik sub'ektlari uchun raqamlashtirilgan soliq tizimlari hisob-kitob jarayonlarini soddalashtirib, ortiqcha vaqt va resurs sarfini kamaytiradi. Bu holat investitsiya muhitini yaxshilab, iqtisodiy faollik va biznes o'sishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi.

Shuningdek, raqamli soliq tizimlari katta hajmdagi ma'lumotlardan samarali foydalanish imkonini berib, dalillarga asoslangan soliq siyosatini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, byudjet rejalashtirish sifatini oshirish va uzoq muddatli barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Albatta, raqamlashtirish jarayoni ma'lum xavf-xatarlar, jumladan, kibernetik muammolari va texnik infratuzilmani takomillashtirish zaruratini ham keltirib chiqaradi. Biroq mazkur muammolarga qaramay, soliq tizimlarini raqamlashtirish zamonaviy davlat boshqaruvining ajralmas qismiga aylanib, barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

1. Smith E. et al. Should we tax unhealthy food and drink? //Proceedings of the Nutrition Society. – 2018. – T. 77. – №. 3. – C. 314-320.
2. Jones C. I. Taxing top incomes in a world of ideas //Journal of Political Economy. – 2022. – T. 130. – №. 9. – C. 2227-2274.
3. Brown N., Brown I. From digital business strategy to digital transformation-How: A systematic literature review //Proceedings of the South African Institute of Computer Scientists and Information Technologists 2019. – 2019. – C. 1-8.
4. Zaynalov J. R., Ahrorov Z. O., Akhadov I. E. The Importance and Characteristics of Application of Blockchain Technologies in the Tax System //ECLSS Online 2020a. – 2020. – T. 297.
5. Тулаков У.Т. Рақамли иқтисодиёт шароитида солиқмаъмуриятчилигини рақамлаштиришнинг хориж тажрибаси. Рақамли иқтисодиёт ва ахборот технологиялари илмий электрон журнали. 2024. 3-сон. – 3-12 б.
6. Ilhom Kenjayev. (2026). Mamlakat ichki investitsion imkoniyatlarini kengaytirishda sug'urta kompaniyalari investitsion faoliyatining rolini oshirish masalalari. Insurance market of Uzbekistan, 3(1). https://doi.org/10.55439/INS/vol3_iss1/354
7. Baratova Dinora Alisherovna. (2025). O'zbekistonda sug'urta faoliyatini rivojlantirish istiqbollari. Insurance market of Uzbekistan, 2(6), 23–24. https://doi.org/10.55439/INS/vol2_iss6/341
8. Qo'ldoshev Qamariddin Mansurovich. (2025). Sug'urta xizmatlariga bo'lgan iste'mol talabini oshirishning innovatsion yo'llari. Insurance market of Uzbekistan, 2(6), 4–8. https://doi.org/10.55439/INS/vol2_iss6/336